

**BOSH ILMIY-METODIK MARKAZ**

**SAMDU HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI  
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**



**KOINOT STRUKTURASI VA EVOLYUSIYASI,  
MATERIYANING YANGI FORMALARI MODULIDAN  
O'QUV-USLUBIY MAJMUA**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**OLIV TA’LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL ETISH  
BOSH ILMIV-METODIK MARKAZI**

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG  
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH  
MINTAQAVIY MARKAZI**

**“KOINOT STRUKTURASI VA EVOLYUSIYASI,  
MATERIYANING YANGI  
FORMALARI”**

**MODULI BO‘YICHA**

**O‘QUV-USLUBIY MAJMUA**

**Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi yo‘nalishi: Fizika**

**Samarqand -2023**

**Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining  
2020 yil “7”-dekabrdagi 648-sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan o‘quv  
dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.**

**Tuzuvchilar:**

Samarqand davlat universiteti Nazariy fizika kafedrası professori R.Ibadov

**Taqrizchilar:**

Samarqand davlat universiteti Optika kafedrası mudiri, professor A.Jumaboev

O‘quv-uslubiy majmua Samarqand davlat universiteti ilmiy-metodik kengashi (2020 yil “28”-  
dekabrdagi 4- sonli bayonnomasi).

## MUNDARIJA

I.	MODULNING NAMUNAVIY DASTURI.....	5
II.	INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....	15
III.	NAZARIY MATERIALLAR.....	21
IV.	AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI.....	59
V.	GLOSSARIY.....	89
VI.	ADABIYOTLAR	RO'YXATI
.....	.....	102

## I. MODULNING NAMUNAVIY DASTURI

### Kirish

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son va 2020 yil 29 oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamdainnovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’limsohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalari asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmunikredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, pedagogning kasbiy professionalligini oshirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizidailmiy va amaliy tadqiqotlar, o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng qo‘llash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablarni takomillashtirilishi mumkin. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o‘quv dasturi quyidagi modullar mazmunini o‘z ichiga qamrab oladi:

### I. Pedagogning professional faoliyatidagi innovatsiyalar

#### 1.1. Kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish.

- 1.2. Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish.
- 1.3. Pedagogning kasbiy professionalligini oshirish.

## **II. Pedagogning axborot va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish**

- 2.1. Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish.
- 2.2. Maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tili.

## **III. Mutaxassislik fanlari**

- 3.1. Koinot strukturasi va evolyusiyasi, materiyaning yangi formalari.
- 3.2. Nanofizika asoslari.
- 3.3. Kvant aloqa. Fizik jarayonlarni kompyuterda modellashtirish.

## **IV. Malakaviy attestatsiya**

Kursning maqsadi va vazifalari Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kursining maqsadi pedagog kadrlarni innovatsion yondoshuvlar asosida o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg'or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o'zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat. Kursning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- "Fizika" yo'nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;
- pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;
- mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali tatbiq etilishini ta'minlash;
- mutaxassislik fanlar sohasidagi o'qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg'or xorijiy tajribalarini o'zlashtirish;
- "Fizika" yo'nalishida pedagog kadrlarni rivojlangan xorijiy davlatlarda fizika sohasida amalga oshiriladigan tadqiqotlar haqidagi bilimlarini takomillashtirish, bu borada respublikamiz va xorijiy etakchi ilmiy markazlar erishayotgan asosiy yutuqlar, zamonaviy ilmiy yo'nalishlar va tadqiqotlar usullari bilan tanishtirish hamda ularni amaliy qo'llash yuzasidan ko'nikma va malakalarga ega bo'lishiga erishish;
- hozirgi zamon fizikasini oliy ta'limda o'qitishning mazmun-mohiyati, uslub va shakllari, fizikaning fan sifatida umumiy va xususiy yo'nalishlarini oliy ta'lim tizimida turli mutaxassislik, ixtisosliklar uchun o'qitishda tanlash;
- "Fizika" yo'nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o'zaro integratsiyasini ta'minlash. Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalari hamda kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar: "Kredit modul tizimi va o'quv jarayonini tashkil etish", "Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish", "Pedagogning kasbiy professionalligini oshirish", "Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish", "Maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz

tili” modullari bo‘yicha tinglovchilarning bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan talablar tegishlita’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligi hamda kompetentligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari bilan belgilanadi. Mutaxassislik fanlari bo‘yicha tinglovchilarquyidagi yangi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo‘lishlari talab etiladi:

**Tinglovchi:**

- oliy ta’limda hozirgi zamon fizikasining dolzarb yo‘nalishlarini;
- mutaxassislar tayyorlashda hozirgi zamon fizikasining o‘rni va rolini;
- nanofizikaning umumiy va o‘ziga xos jihatlari, ularning tadqiqot ob’ektlari, predmetlari hamda materialshunoslik yo‘nalishidagi prinsial o‘rnini;
- fizik jarayonlarni modellashtirishda elektron ta’lim resurlaring o‘rni va ularning tahlili, modellashtirishda ommaviy onlayn ochiq kurslardan foydalanishni;
- relyativistik kosmologiyadagi zamonaviy revolyusion yangiliklar va zamonaviy adabiyotlar, so‘nggi yillardagi kosmologiyadagi aniqlangan fundamental qonuniyatlar, kosmologiyadagi kashfiyotlar va tamoyillar, xozirgi zamon eksperiment va astronomik kuzatuvlardan koinotning yirik masshtabdagi strukturasi o‘rganishda samarali foydalanish to‘g‘risidagi bilimlarga ega bo‘lishi kerak.

**Tinglovchi:**

- pedagogik eksperimentni o‘tkazish, uning amaliy natijalarini tahlil qila olish va qo‘llay bilish;
- tinglovchi nanofizikaning umumiy va o‘ziga xos jihatlari bo‘yicha dolzarb muammolarni tahlil etish va ularni echish, nanoob’ektlarni xosil qilish va xossalarini tadqiq etish usul va qurilmalarini ishlash prinsiplari tahlil qila olish;
- katta portlash va kosmologik inflyasiya nazariyasining asosiy tushunchalari farqlay olish;
- astrofizika nuqtai-nazaridan yadro reaksiyalar klassifikatsiyasini farqlash;
- olamning tezlanish bilan kengayishi, qorong‘i materiya va qorong‘i energiya, astrofizikadagi kompakt ob’ektlar va gravitatsion to‘lqinlarini tahlil qila olish;
- kvant optikasi usullari va asosiy yo‘nalishlarini farqlash;
- fizik jarayonlarni modellashtirish usullarini amalda qo‘llash;
- pedagogik dasturiy vositalar – kompyuter texnologiyalari yordamida o‘quv jarayonini qisman yoki to‘liq avtomatlashtirish uchun mo‘ljallangan didaktik vositalardan foydalanishni uslubiy jihatdan to‘g‘ri tashkil etish ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak.

**Tinglovchi:**

- ma’ruza va seminar mashg‘ulotlarni bir-biriga mutanosib tarzda tashkil etish, mashg‘ulotlar jarayonida kuzatiladigan ijobiy holatlarni taqdirlash va salbiy illatlarni bartaraf etish, o‘zlashtirishni tahlil qilish;
- Nanomateriallarning fizik xususiyatlarini va ularning fizik mexanizmlarini anglash

va bu xususiyatlardan qaysi nanoqurilmalarda qo'llash mumkinligini aniqlash, nanotexnologiyalarni energetikada qo'llash;

- Crocodile Physics, Yenka, PhET web-tizimlaridan foydalanuvchi interfeysini yarata olish;

- relyativistik kosmologiya modulini strukturalashtirish, Olam evolyusiyasi, koinotning strukturasi, tarkibi, materiyaning va energiyaning yangi formalari, zamonaviy kosmologik modellar, koinotda ximik elementlarning paydo bo'lishi va tarqalishi. Materiya taqsimoti haqida ma'lumotlar, mikroto'lqinli fon, Xabbl doimiysi, Olamning yoshi. O'ta yangi yulduzlarning chaqnashi va ularning tiplari. Ia tipidagi o'ta yangi yulduz va standart yoritgichlar tahlil etish malakalariga ega bo'lishlari kerak.

Tinglovchi:

- so'nggi yillarda xalqaro miqiyosida fizika fani sohasida yaratilgan ilmiy g'oyalarni amalda qo'llash;

- oliy ta'limda fizika o'qitish jarayoniga yangi usullar va ilg'or innovatsion texnologiyalarni qo'llay olish;

- belgilangan shakl va o'lchamga ega bo'lgan nanomateriallarni sintezlash usullarini va zarur xossalarini o'rganish metod va qurilmalarni tanlay olish va ularni ishlash prinsiplarini tushunish;

- kvant optikasi va lazer fizikasi hamda fotonika sohalaridagi yangiliklarni baholash va amalda qo'llash;

- asosiy kosmologik modellar. Yulduzlardagi yadro reaksiyalar.

Koinotning katta portlash natijasida yaratilishi, inflyasiya jarayoni. Fundamental o'zaro ta'sirlar. Kvarq-glyuon plazmasi, yadrolar, mezonlar va leptonlar fizikasini tushunish va qo'llash;

- Fizikaviy hodisa va jarayonlarning tayyor kompyuter modellari bilan ishlay olishi kompetensiyalariga ega bo'lishi lozim;

### **Kurs hajmi**

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi 288 soatni tashkil etadi. Bunda o'quv dasturining 144 soat hajmi ishdan ajralmagan holda mustaqil malaka oshirish usullari asosida, 144 soati to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) malaka oshirish shaklida ishdan ajragan holda amalga oshiriladi. Malaka oshirishning bevosita shaklida bir haftadagi o'quv yuklamasining eng yuqori hajmi 36 soatni tashkil etadi. Attestasiyadan muvaffaqiyatli o'tgankurs tinglovchilariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi PF-4732-son Farmoni3-ilovasi bilan tasdiqlangan davlat namunasidagi malaka attestati beriladi.

## **“FIZIKA” YO‘NALISHI BO‘YICHA QAYTA TAYYORLASH VA MALAKA OSHIRISH KURSI O‘QUV MODULLARINING MAZMUNI**

### **I. PEDAGOGNING PROFESSIONAL FAOLIYATIDAGI**



## **INNOVATSIYALAR**

1.1. Kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish. Xorijiy davlatlardagi kredit ta‘lim tizimlari: Amerika Qo‘shma SHtatlari kredit tizimi (USCS), Kreditlarning to‘plash va o‘tkazishning Britaniya tizim (SATS), Evropa kredit tizimi (ECTS), Universitet kreditlarini o‘tkazishning Osiyo - tinch okeani tizimi (UCTS). Kredit tizimi asosida ta‘lim jarayonlarini tashkil etish va uning sifatini ta‘minlashning innovatsion metodlari. Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ishini rejalashtirish va tashkil qilish. Kredit-modul tizimida pedagoglar faoliyati. Kredit-modul tizimida o‘quv jarayonining uslubiy ta‘minoti. Sillabus. Ta‘lim natijalari (Blum taksonomiyasi asosida). Bilim darajalari. Ta‘lim natijalarini baholash usullari. Ta‘lim sohasini boshqarishning huquqiy asoslari. Ta‘lim sohasiga oid qonun hujjatlari va ularning mazmuni. Pedagog xodimlarning mehnat munosabatlarini tartibga solish. Ta‘lim muassasalarida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashishning huquqiy va ma‘naviy-ma‘rifiy asoslari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy ta‘lim tizimiga oid qabul qilgan farmonlari, qarorlari va farmoyishlari. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy ta‘lim tizimiga tegishli normativ-huquqiy hujjatlari. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga oid normativ-huquqiy hujjatlari. Davlat ta‘lim standartlari, tegishli ta‘lim (mutaxassislik) yo‘nalishlari bo‘yicha davlat ta‘lim standarti, o‘quv rejalar va fan dasturlari va ularga qo‘yiladigan talablar. O‘quv rejalar va o‘quv fanlari dasturlarini takomillashtirish tamoyillari. O‘quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish metodlari.

### **1.2. Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish.**

O‘zbekiston Respublikasining “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi hamda “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonunlari hamda O‘zbekiston Respublikasida ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining mazmuni va mohiyati. O‘zbekiston Respublikasida ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning maqsadi, vazifasi va uning metodologik asoslari. Ilmiy-tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish va innovatsion faoliyatning huquqiy asoslari. Ilmiy ishlanmalar va tijoratlashtirish ob‘ektlari. Innovatsion ishlanmalar, davlat ilmiy-texnik dasturlari, loyihalari, startap-loyihalarni rasmiylashtirish. Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirishning uzviy bog‘liqligini nazarda tutuvchi «Universitet 3.0» konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish. Zamonaviy universitetlarda texnologiyalar va loyiha boshqaruvi. Fan, ixtirochilik va texnologiyalar transferini rivojlantirish va innovatsion faoliyatni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish. Infratuzilma va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish. Ta‘lim tizimini takomillashtirish va inson kapitalini rivojlantirish. Pedagogning innovatsion faoliyatini rivojlantirish. Professor-o‘qituvchilarning tadqiqotchi sifatida nashr faolligini rivojlantirish. Xalqaro ilmiy-texnik ma‘lumotlar bazalari va ularning tavsiflari. Ilmiy maqolalarga qo‘yilgan talablar, maqolani

tayyorlash, chop ettirish tartiblari. Pedagogning shaxsiy, kasbiy axborot maydonini Scopus, ScienceDirect, Web of Science tizimlari asosida takomillashtirish.

### **1.3. Pedagogning kasbiy professionalligini oshirish.**

Professional o'qituvchi shaxsi. Pedagogning kompetentligi va kreativligi. Pedagogning kasbiy professionalligi va uni innovatsion faoliyatda namoyon bo'lishi. Kasbiy-pedagogik tayyorgarlik jarayonida tayanch (soft skills), maxsus (hard skills) kompetensiyalar mazmuni. Modulli-kompetentli, integrativ, innovatsion-kreativ yondashuvlar. Ta'lim jarayonini loyihalash va modellashtirish pedagogning kasbiy professional ijodkorliginirivojlantirish omili. O'quv mashg'ulotlarining zamonaviy turlarini (loyiha, aralash ta'lim, virtual laboratoriya, debat) tashkil etish va o'tkazish metodikasi. Talabalarda tanqidiy, o'zini-o'zi (motivatsion, intellektual, amaliy-faoliyatli, faol kommunikatsiya va jamoaviy ish) rivojlantirish va kreativ fikrlashni shakllantirish usullari (dizayn-fikrlash, skamper va x.q.). Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishning zamonaviy shakllari. Steam-ta'lim (Science – aniq fanlar, Technology – texnologiyalar, Engineering – texnik ijodkorlik, Art – ijodiy san'at, Mathematics – matematika) va STREM-ta'lim (fan, texnologiyalar, robot texnikasi, injeneriya va matematika) xususiyatlari.

## **II. PEDAGOGNING AXBOROT VA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH**

### **2.1. Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish.**

Raqamli texnologiyalar va ularning didaktik imkoniyatlari. Ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish. «Elektron universitet» va uning xususiyatlari. Vebinar, onlayn ma'ruza, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga joriy etish. Masofaviy ta'lim platformalari va ulardan foydalanib, ta'lim jarayonlarini tashkil etish. Ta'lim jarayonlarida «bulutli texnologiyalar»dan foydalanish. Bulutli texnologiyalardan foydalangan holda o'quv jarayonini va axborot ta'lim maydonini takomillashtirish. Multimediali interaktiv o'quv-uslubiy qo'llanmalarni va elektron ta'lim resurslarini yaratish, ulardan ta'lim tizimida foydalanish. QR-kod va undan foydalanish. Pedagogik faoliyatda interaktiv infografika vositalaridan foydalanish.

### **2.2. Maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tili.**

Maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tili (English for Specific Purposes) – kasb sohasidan kelib chiqib ingliz tilini o'rgatish. Kasb soha vakillari tomonidan minimal grammatika (Present Indefinite Tense, Present Continuous Tense, Past Indefinite Tense, Future Indefinite Tense) hamda sohaga oid faol so'zlarni (minimal 400) yoddan bilishi. Grammatika va leksikani kommunikativ maqsadlarda o'rgatishga zamonaviy yondashuv. Ingliz tilida autentik vaziyatlarni tahlil qilish. Tinglovchilarda autentik vaziyatlarga oid: e-mail yozish, so'zlashish (ilmiy yo'nalishi haqida), tushunish (jarayonni tinglab tushunish)

va o'qib tushunish (gazeta va jurnallardagi kasb sohasiga oid maqolani o'qish)ko'nikmalarini rivojlantirish. Sohaga yo'naltirilgan mavzularda til ko'nikmalarini rivojlantirish, mutaxassislik fanlarini xorijiy tilda o'qitishni loyihalashtirish.

Ilmiy tadqiqotlarga yo'naltirilgan til ko'nikmalarini o'zlashtirish, ilmiy matnlarning rezyumesini tayyorlash, xorijiy adabiyotlar bilan ishlash. Xorijiy mutaxassislar bilan muloqot stereotiplari. Elektron xatlar yozish, xorijiy tilda taqdimotlar tayyorlash.

Kundalik va ijtimoiy hayotga oid mavzular: SHaxs va shaxsiyat. Oziq-ovqat. Sihat-salomatlik. Oilaviy qadriyatlar. SHahar va qishloq hayoti. Dam olish va sport bilan shug'ullanish. Kasb-hunar va ishbilarmonlik. Ommaviy axborot. Munosabatlar. Tibbiyot, ilm-fan, zamonaviy texnologiyalar sohasidagi etika masalalari. Rezyume to'ldirish, madaniy hordiq, telefonda suhbat. Sayohat va turizm,

transport sohasi, biznes faoliyat, kashfiyotlar, san'at, fan, ta'lim va texnologiya sohasi, atrof-muhitni muhofaza qilish. Sohaga oid davrning eng dolzarb muammolarini o'rganish, muhokama va tahlil qilish.

### **III. MUTAXASSISLIK FANLARI**

#### **3.1. Koinot strukturasi va evolyusiyasi, materiyaning yangi formalari.**

Koinot to'g'risidagi tasavvurlar paydo bo'lishi va rivojlanishi. Zamonaviy kosmologiya haqida qisqacha ma'lumot. Katta portlash va inflyasiya. Olamning rivojlanishidagi hal qiluvchi bosqichlar, elementar zarralar shakllanishi va barion moddaning ustunligi asimmetriyasi. Birlamchi yadroviy reaksiyalar hamda dastlabki nukleosintez va engil elementlarining tarqalishi. Koinotda birlamchi yulduzlar va galaktikalarning paydo bo'lishi va evolyusiyasi. Zamonaviy relyativistik kosmologiyada materiyaning yangi formalari: qorong'i materiya va qorong'i energiya. Xozirgi etapda koinotning tezlanish bilan kengayishi. Og'ir

elementlarning tashkil topishi va tarqalishi. O'ta yangi yulduzlar. Planeta tizimlarining shakllanishi va zamonaviy astronomik kuzatuvlarda ekzoplanetalar qayd etilishi. YAdroviy geoxronologiya. YUlduzlar evolyusiyasi, kollaps. CHandrasekar chegarasi. Neytron yulduzlar. Kvazarlar. Zamonaviy kosmologiyadagi muammoalar va koinotning yirik masshtabdagi strukturasi. Astronomiyada gravitatsion to'lqinlar. Qora o'ralar va neytron yulduzlarning to'qnashuvi natijasida hosil bo'lgan gravitatsion to'lqinlarni qayd qilish va ularning manbalari. Galaktika markazidagi o'ta massiv qora o'ralar. Aylanuvchi qora o'ralar atrofida optik va energetik jarayonlar.

#### **3.2. Nanofizika asoslari.**

Nanofizika va nanotexnologiyalar predmeti, zonalar nazariyasi, metall, dielektrik va yarimo'tkazgichlar haqida tushincha. Nanomateriallar, ularning fizik xususiyatlari va amaliyotda qo'llanishi. Nanostrukturalarda fundamental elektron hodisalar, kvant o'lcham effektlari. Kvant chegaralanishi. Nanoob'ektlarni sintezlash usullari, "yuqoridan-pastga" va "pastdan-yuqoriga" texnologiyalar, fotolitografiya. Kimyovaiy va fizik sintezlash usullari.

Nanotrubkalar, nanorodlar, nanosimlar, kvant nuqtalarib nanoplyonkalar. Nanoob'ektlarni kuzatish vositalari. Skanlovchi zondli mikroskopiya, elektron mikroskopiya, skanlovchi elektron mikroskop, transmission elektron mikroskop. Spektroskopik usullar. Nanotexnologiyalarni energetika va atrof muhit himoyasida qo'llash. Yangi avlod Quyosh elementlari, fotokatalizatorlar, vodorod energetikasi, nanogeneratorlar.

### **3.3. Kvant aloqa. Fizik jarayonlarni kompyuterda modellashtirish.**

Kvant optikasi usullari va asosiy yo'nalishlari. Lazer fizikasi va fotonika asoslari. Kvant chigallik. Kvant teleportatsiya. Kvant interferensiya. Fotoni teleportatsiya qilishga mo'ljallangan eksperimental qurilmalar. Kvant interneti va kvant kompyuterlari. Zamonaviy axborot uzatishning fizik asoslari. Kompyuterda modellashtirish. Hisoblash fizikasi. Modellashtirish bosqichlari. Kompyuterda modellashtirish uchun operatsion tizim. Dasturiy ta'minot, fizik jarayonlarni modellashtirish. Asosiy tushunchalar. Modellashtirish bosqichlari. Fizik jarayonlarni modellashtirishda axborot - kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib ta'lim sifatini oshirish. Ilmiy dasturlash tillari. Fizik jarayonlarni modellashtirishda elektron ta'lim resurlarning o'rni va ularning tahlili. Fizik jarayonlarni modellashtirishda ommaviy onlayn ochiq kurslardan foydalanish. Hisoblash fizikasi. Crocodile Physics dasturida modellashtirish. Phet interfaol simulyasiyalari.

## **IV. Malakaviy attestatsiya**

Tinglovchilarning malakaviy attestatsiyasi kasbiy, o'quv-metodik va ilmiy-metodik faoliyati natijalari (elektron portfolioda qayd etilgan ko'rsatkichlari), kursni tamomlagandan keyingi onlayn test sinovlari hamda Attestatsiya komissiyasida bitiruv ishini himoya qilish asosida o'tkaziladi. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar Amaliy mashg'ulotlarda tinglovchilar o'quv modullari doirasidagi ijodiy topshiriqlar, keyslar, o'quv loyihalari, texnologik jarayonlar bilan bog'liq vaziyatli masalalar asosida amaliy ishlarni bajaradilar. Amaliy mashg'ulotlar zamonaviy ta'lim uslublari va innovatsion texnologiyalarga asoslangan holda o'tkaziladi. Bundan tashqari, mustaqil holda o'quv va ilmiy adabiyotlardan, elektron resurslardan, tarqatma materiallardan foydalanish tavsiya etiladi. Mustaqil malaka oshirishni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar Mustaqil malaka oshirish quyidagi shakllarni o'z ichiga oladi: ochiq o'quv mashg'ulotlari va mahorat darslarini tashkil etish; iqtidorli va iste'dodli talabalar bilan ishlash; ilmiy konferensiyalarda ma'ruza bilan qatnashish; ilmiy jurnallarda maqolalar chop etish; ko'rgazma va tanlovlarda ishtirok etish; ilmiy loyihalarda ishtirok etish; xalqaro (impakt-faktorli) nashrlarda maqolalar e'lon qilish; ixtiro (patent), ratsionalizatorlik takliflari, innovatsion ishlanmalarga mualliflik qilish; monografiya, mualliflik ijodiy ishlar katalogini tayyorlash va nashrdan chiqarish; o'quv adabiyotlari (darslik, o'quv qo'llanma, metodik qo'llanma)ni tayyorlash va nashrdan chiqarish; falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun himoya qilingan dissertatsiyaga ilmiy rahbarlik qilish. Pedagog kadrlarning mustaqil malaka oshirish natijalari elektron

portfolio tizimida o'z aksini topadi. Mustaqil malaka oshirish davrida pedagoglar asosiy ish joyi bo'yicha pedagogik amaliyotdan o'tadilar. Pedagogik amaliyot davrida pedagog asosiy ish joyi bo'yicha kafedraning etakchi professor-o'qituvchilarini 2 ta darsini kuzatadilar va tahlil qiladilar hamda kafedra a'zolari ishtirokida talabalar guruhi uchun 1 ta ochiq dars o'tkazadilar. Ochiq dars tahlili hamda pedagog tomonidan kuzatilgan darslar xulosalari kafedraning yig'ilishida muhokama etiladi va tegishli kafedraning bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi. SHuningdek, mustaqil malaka oshirish jarayonida tinglovchi qo'yidagi bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishi lozim:

- ta'lim, fan va ishlab chiqarishni integratsiyalashni tashkil etish, kadrlar buyurtmachilari va mehnat bozori ehtiyojlarini hisobga olgan holda o'quv rejaları va fanlar dasturlarini shakllantirish;

- o'quv mashg'ulotlarining har xil turlari (ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya mashg'ulotlari, kurs ishlari loyihalari, malaka bo'yicha amaliy mashg'ulotlar)ni tashkillashtirish;

- talabalar o'rtasida milliy mustaqillik g'oyalari asosida ma'naviy-axloqiy va tarbiyaviy ishlarni olib borish, ta'lim jarayoni qatnashchilari bilan o'zaro munosabatlarda etika normalari va nutq madaniyati, talabalarning bilim va ko'nikmalarini nazorat qilishni tashkil etish va ilmiy-metodik ta'minlash, iqtidorli talabalarni qidirib topish, tanlash va ular bilan ishlash metodlarini bilish va amalda qo'llash;

- oliy ta'limda menejment va marketing asoslarini bilish va amaliy faoliyatga tatbiq etish. mustaqil ta'lim olish yo'li bilan o'z bilimlarini takomillashtirish. Dasturning axborot-metodik ta'minoti Modullarni o'qitish jarayonida ishlab chiqilgan o'quv-metodik materiallar, tegishli soha bo'yicha ilmiy jurnallar, Internet resurslari, multimedia mahsulotlari va boshqa elektron va qog'oz variantdagi manbalardan foydalaniladi

## II. INTREFAOL TA'LIM METODLARI

### “SWOT-tahlil” metodidan foydalanish

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

<b>S – (strength)</b>	• кучли томонлари
<b>W – (weakness)</b>	• заиф, кучсиз томонлари
<b>O – (opportunity)</b>	• имкониятлари
<b>T – (threat)</b>	• тўсиқлар

**Namuna:** Ana’naviy va zamonaviy ta’lim shakllarini “SWOT-tahlil” metodida tahlil qiling.

Oddiy ma’ruzada ma’ruzachi talabalar, tinglovchilarga ko’p ma’lumot bera oladi	Muammoli ma’ruzada kamroq ma’lumot beriladi, biroq ular talabalar ongiga singdirib beriladi
O’qituvchi asosan o’zi va a’lochi, qiziquvchi talabalar bilan gaplashadi, ya’ni darsda oz sonli talabalar qamrab olinadi	Muammoli ma’ruzada ko’p sonli talabalar, tinglovchilar qamrab olinadi
Oddiy ma’ruzada faqat o’qituvchi reja asosida va tayyorlab kelgan ma’lumotlari atrofida gaplashiladi	Muammoli ma’ruzada muhokama jarayonida yangi-yangi masalalar, muammolar yuzaga chiqishi, g’oyalar tutilishi mumkin.
O’qituvchi uchun asosiy to’siq – dasturdan chiqib keta olmaslik, talaba uchun qiziqmasa ham o’qituvchini eshitib o’tirish majburiyati	Keng muhokama uchun vaqtning chegaralanganligi, talabalarni mavzudan chetga burishga intilishlari

## Rezyume, Veer metodidan foydalanish

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashga hamda o'quvchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. "Xulosalash" metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida foydalanish mumkin.

### Методни амалга ошириш тартиби:



тренер-ўқитувчи иштирокчиларни 5-6 кишидан иборат кичик гуруҳларга ажратади;



тренинг мақсади, шартлари ва тартиби билан иштирокчиларни таништиргач, ҳар бир гуруҳга умумий муаммони таҳлил қилиниши зарур бўлган қисмлари туширилган тарқатма



ҳар бир гуруҳ ўзига берилган муаммони атрофлича таҳлил қилиб, ўз мулоҳазаларини тавсия этилаётган схема бўйича тарқатмага ёзма баён қилади;



навбатдаги босқичда барча гуруҳлар ўз тақдимотларини ўтказадилар. Шундан сўнг, тренер томонидан таҳлиллар умумлаштирилади, зарурий ахборотлар билан тўлдирилади ва

**Namuna:**

Falsafadan malaka talablari					
Sobiq standartlar		Amaldagi standartlar		Takomillashtirilgan standartlar	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
<b>Xulosa:</b>					

## “FSMU” metodidan foydalanish

**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiyl xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

### Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi:



FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

### Namuna.

**Fikr:** “Falsafadan malaka talablarini xalqaro andozalar asosida takomillashtirish va sertifikatlashtirish ta’lim samaradorligining eng muhim omillaridan biridir”.

**Topshiriq:** Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.




## Venn Diagrammasi metodidan foydalanish


**Metodning maqsadi:** Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

### Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralari ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a‘zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

### Namuna: Falsafani turli yo‘nalishlarda o‘qitishning farqli jihatlarini o‘ziga xosliklari





Ўқув жараёнида муаммолар ва муаммоли вазиятларни ечишга йўналтирилган интерфаол методлар

*“SWOT-универсал таҳлил”*

*“Дебат”,*

*Муаммоли вазият яратиш*

*“Резюме”,*

*“Т-чизмаси”,*

*“Венн диаграммаси”,*

*“Органайзер”,*

Ҳар хил чизмалар, жадваллар ёрдамида амалга ошириладиган интерфаол методлар:

### III. NAZARIY MATERIALLAR

#### 1-MAVZU. Kvant optikasining asosiy yo'nalishlari va usullari. Lazer fizikasi va fotonika asoslari.

21-asrning boshlarida dunyo ikkinchi kvant inqilobi arafasida edi - bu murakkab kvant tizimlarini individual zarralar darajasida boshqarish qobiliyati, bu kvant shifrlash va hisoblash tizimlarini yaratishga imkon berdi.

20-asrning ikkinchi yarmida boshlangan birinchi kvant inqilobida kollektiv kvant hodisalarini boshqarish asosida texnologiyalar va qurilmalar qurildi (1-rasm). Hozirgi kunda insoniyat lazerlari, tranzistorlari va kompakt-disklariga ega. Birinchi kvant inqilobining texnologiyalarisiz Internet va mobil aloqaning hamma joyda bo'lishi mumkin emas edi.




Анжир. 1. Birinchi va ikkinchi kvant inqiloblari

#### Кvant tasodifiyligi

Ayrim kvant ob'ektlarini boshqarishning turli usullari odatda "kvant texnologiyalari" atamasi bilan birlashtiriladi. Kvant texnologiyalarini qo'llashning misoli tasodifiy sonlar generatori. Haqiqiy tasodifiylikni yaratish makrokozmda qiyin vazifadir. Nazariy jihatdan, agar sizda barcha dastlabki ma'lumotlar bo'lsa, tanga tashlash natijasini ham hisoblash mumkin. Amaliyotda psevdotasodifiy sonlardan foydalaniladi. Agar biron bir aqlli yigit ularning avlodlari namunasini tushunsa, u shifrlangan xabarlarni buzishi, bank to'lov hujjatlarini qalbakilashtirishi yoki kazinoni buzishi mumkin. Fizikada faqat kvant tasodifiyligi chinakam tasodifiy hisoblanadi. ... Tasodifiy sonlar generatorining vazifasi uni mikrokosmosdan makrokosmga o'tkazishdir.

Dunyodagi birinchi kvant tasodifiy sonlar generatori Jenevada joylashgan ID Quantique kompaniyasi tomonidan yaratilgan. Uning rivojlanishida shu qadar past nurlanish intensivligi bo'lgan lazerdan foydalaniladi, chunki har bir daqiqada faqat bitta elektromagnit nurlanish kvanti - foton mavjud. U yarim shaffof oynaga uriladi va tasodifiy ravishda u orqali "1" detektoriga o'tadi yoki "0" detektorida aks etadi. "1" detektorida hosil qiladi, "0" detektorida - nol. SHunday qilib, chinakam tasodifiy ketma-ketlik olinadi (2-rasm).




Anjir. 2. ID Quantique-da amalga oshirilgan kvant tasodifiy sonlar generatorining ishlash prinsipi

### Bit va qubit

Zamonaviy kvant texnologiyasining asosi bo'lgan haqiqiy kvant tasodifiylikning mavjudligi har doim ham fiziklar tomonidan tan olinmagan. "Xudo koinot bilan zar o'ynamaydi", dedi Albert Eynshteyn Nil Borga. Bunga u javob oldi: "Xudoga nima qilishni aytma". Zamonaviy ilm-fan Bor tomonida. Ko'p sonli qonunlar, tendensiyalar, statistik qonuniyatlar mavjud, ammo ma'lum bir elementar zarrachaning barcha xususiyatlari, koinot asoslari, o'lchov paytigacha ehtimoliydir.

Klassik kompyuter qat'iy deterministik dunyoga mos keladi. Bit qiymati noyob tarzda aniqlanadi: nol yoki bitta. Ammo dunyo deterministik emas. Kvant hisoblashida dunyo ehtimoliydir. Bit analogi - kubit - ma'lum bir holatda bo'lish ehtimoli bilan tavsiflanadi (3-rasm). Agar bitni stolda noaniq aniqlangan holat - boshlar yoki quyruqlar bilan yotgan tanga o'xshatish mumkin bo'lsa, u holda kubit - bu havoda aylanadigan yoki stakanda sakrab tushadigan tanga bo'lib, uning faqat bosh yoki quyruq bo'lish ehtimoli bor. Ilmiy jihatdan aytganda, o'lchov oldidan superpozitsiya holatida bo'lgan tizim.



Анжир. 3. Qubit holatlardan birida bo‘lish ehtimoli bilan tavsiflanadi ("0" yoki "1")

#### Кvant chalkashligi va kvant shifrlash

Кvant ob‘yektlari na klassik to‘lqinlar, na klassik zarralar bo‘lib, ular ustida o‘tkaziladigan tajribalar shartlariga qarab birinchisining yoki ikkinchisining xususiyatlarini namoyish etadi. Bundan tashqari, Heisenberg noaniqlik prinsipiga muvofiq, ob‘ektning bir xususiyati (energiya, spin, to‘lqin uzunligi) qanchalik aniq o‘lchangan bo‘lsa, ikkinchisini shunchalik aniqroq o‘lchash mumkin. Kvant ob‘yektlari aniqlanmagan, ehtimoliy fizik xususiyatlarga ega bo‘lib, ular kubitlar - superpozitsiya holatidagi tizimlar sifatida foydalanish uchun juda mos keladi.

Ammo bit yoki kubit bilan yozilgan ma‘lumotlarga ega bo‘lish etarli emas. Biz uni uzatishimiz va qayta ishlashimiz kerak. Kvant aloqasini ta‘minlash uchun ishlatiladigan asosiy hodisa chalkashlikdir. ikki yoki undan ortiq narsalarning kvant holatlarining o‘zaro bog‘liqligi.

Masalan, agar siz ma‘lum bir energiyaga ega bo‘lgan yashil fotonni chiziqli bo‘lmagan kristallga yuborsangiz, unda ikkita chalkash qizil foton undan uchib chiqadi. Har birining energiyasini aniqlashning iloji yo‘q, lekin agar biz bitta fotonning energiyasini o‘lchasak, unda energiyaning saqlanish qonuniga binoan, ikkinchisining energiyasi o‘ziga xos tarzda aniqlanadi, chunki energiya yig‘indisi qizil fotonlar yashil rangning energiyasiga teng.

O‘lchov oldidan qizil fotonning yoshi (detektor tutilguncha vaqt) ham noma‘lum. Ammo bu ikkinchi qizil fotonning yoshiga teng, aks holda saqlanish qonuni buzilgan bo‘lar edi. SHunday qilib, fotonlar o‘rtasida kvant korrelyasiyalari paydo bo‘ladi. Va agar biz bitta fotonning yoshini aniqlasak, ikkinchisining yoshini aniq belgilaymiz, bu birinchisidan ancha uzoqroq bo‘lishi mumkin.


Olimlar tomonidan o‘tkazilgan tajribalar kvant zarrachasining dinamik xususiyatlari

o'lov paytida ham amalda mavjud degan tabiiy taxminni statistik ravishda rad etadi va o'lov faqat qaysi xususiyat sodir bo'lishini bilmasligimizni yo'q qiladi. Uchinchi tomon tomonidan zarrachaning parametrlarini o'lchashga urinish paytida chalkashlikni saqlab qolish mumkin emasligi to'g'risida buzilmas kvant birikmasi qurilgan.

Ochiq aloqa kanali orqali bog'langan ikkita tomon faqat o'zlariga ma'lum bo'lgan umumiy tasodifiy kalitni yaratishi va undan uzatilgan axborot paketlarini shifrlash / parolini hal qilish uchun foydalanishi mumkin. Agar uchinchi tomon kalitni olishga harakat qilsa, u holda aloqa kanali orqali uzatiladigan kvant holatlarini o'lchash kerak bo'ladi, bu ularning o'zgarishiga va uning mavjudligiga xiyonat qiladigan anomaliyalar paydo bo'lishiga olib keladi. Agar anomaliyalar soni ma'lum chegaradan past bo'lsa, unda kalit yaratiladi va uzatish xavfsizligi kafolatlanadi, aks holda maxfiy kalit yaratilmaydi va ulanish to'xtatiladi.

Yuqorida tavsiflangan kvant kalitlarini taqsimlash usuli nafaqat laboratoriya sharoitida, balki to'liq xavfsiz aloqa kanallarini tashkil etishga imkon beradi. Birinchi marta kvant shifrlash 2007 yilda SHveysariya Federal Majlisiga saylovlar paytida, keyin 2010 yilda Janubiy Afrikada bo'lib o'tgan Jahon kubogi paytida aloqa uchun ishlatilgan.

2016 yil avgust oyida xitoyliklar Szyuan kosmodromidan dunyodagi birinchi kvant sun'iy yo'ldoshi Mo Szuni uchirishdi (4-rasm). Qurilma chalkash fotonlarni 1200 km dan ortiq uzoq masofaga tarqalishini ta'minladi. Kosmik kemaga chalkash fotonlarning yorqin manbai o'rnatildi - bu o'z-o'zidan parametrik tarqalish sodir bo'lgan kristall, ya'ni. kamaytirilgan energiya bilan bitta fotonni ikkiga aylantirish. Manba bir soniyada qariyb 6 million juft chigallashgan foton ishlab chiqardi. Foton juftliklari ikkita teleskop yordamida erdagi rasadxonalarga yuborildi: Delingha (Tibet), Nanshan (Urumchi) va Gaomeygu (YUnnan). Ham sun'iy yo'ldoshning teleskoplari, ham teleskop-qabul qiluvchilar yuqori ko'rsatma aniqligini talab qildilar - "Mo-Tzu" orbitada taxminan 8 km / s tezlikda harakatlandi.



Anjir. 4. "Mo-Tzu" kvant sun'iy yo'ldoshi, juft juft fotonlar chiqaradi

2018 yil yanvar oyida Mo-Tzu sun'iy yo'ldoshi ishonchli ma'lumotlarni xavfsiz kanal orqali uzatdi, ular orasidagi masofa 7,6 ming km bo'lgan avstriyalik Graz va xitoylik Sinlingni bog'ladi. Sun'iy yo'ldosh nomi bilan atalgan qadimgi xitoylik faylasufning surati Xitoydan Avstriyaga yuborilgan va Ervin SHredingerning surati teskari yo'nalishda yuborilgan.

Dunyodagi birinchi tijorat kvant tarmog'i Buyuk Britaniyada 2019 yil mart oyida ishga tushirildi. Kvant himoyasiga ega kanal yuqori texnologiyali sanoat klasterlari - Kembrij Ilmiy Parki va Ipsvich yaqinidagi Innovation Martlesham klasterini bevosita bog'laydi.

2020 yil yanvar oyida Xitoyda Mo-Tzu sun'iy yo'ldoshiga ulangan dunyodagi birinchi mobil kvant stansiyasining yaratilishi to'g'risida xabar keldi. Mobil kvant aloqa

moslamasining massasi 80 kg ni tashkil qiladi. Siz uni cho'ntagingizda olib yurolmaysiz, lekin uni allaqachon avtomobil tomiga o'rnatishingiz mumkin. Portativ stansiya, avvalambor, mamlakatning turli qismlaridagi filiallarni ulash uchun sun'iy yo'ldosh kvant kriptografiyasidan foydalanadigan Xitoy banklari uchun mo'ljallangan. YAqin bir necha yil ichida olimlar tijorat mijozlariga xizmat ko'rsatish uchun kichik kvant aloqa sun'iy yo'ldoshlarini orbitaga chiqarishni rejalashtirmoqdalar.

Optik tolali optikalar bilan tajribalar davom etmoqda. Xitoylik mutaxassislar kvant aloqa texnologiyasidan Pekin va SHanxay o'rtasida xavfsiz kanalni tashkil qilishda foydalanishdi. Ushbu magistral shuningdek an'anaviy tarmoq tarkibiy qismlaridan foydalanadi, bu esa buzilish xavfini keltirib chiqaradi. Ammo Delft Texnika Universitetining loyihasi kelajakdagi sindirilmaz Internet prototipi deb hisoblanishi mumkin bo'lgan kvant texnologiyalaridan foydalangan holda ma'lumotni oxiridan oxirigacha uzatadigan dunyodagi birinchi tarmoqni yaratishni nazarda tutadi. To'rt shaharni bir-biriga bog'laydigan Gollandiyaning kvant tarmoqlari 2020 yilda qurilishi rejalashtirilgan.


## **2-mavzu. Kvant teleportatsiyasi**

Kvant aloqasi kvant teleportatsiyasi uchun ishlatilishi mumkin, bu hodisa, unda asl ob'ektning moddasi (massasi, energiyasi) ketish nuqtasida qoladi, ammo uning butun tuzilishi (jismoniy holati) shunchaki yo'qoladi. Masalan, agar plastilin o'rdak teleportatsiya qilsa, u holda plastilin joyida qoladi, ammo u o'rdak shakliga ega bo'lishni to'xtatadi, u shaklsiz bo'ladi. Belgilangan joyda, teleportatsiya jarayonining oxiridagi shaklsiz plastilin (modda) qozig'i, asl o'rdakning shaklini alohida atomlarning joylashishiga qadar oladi.

